

6. Алиева С. К. Всеобщая история в таблицах и схемах. – Москва: Изд-во ООО Лист Нью, 1999.

7. Чернух И.Н. Логические схемы и таблицы в обучении истории. / И.Н.Чернух. Текст : непосредственный // Теория и практика образования в современном мире : материалы I Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, февраль 2012 г.). Т. 1. – Санкт-Петербург: «Реноме», 2012. - С. 237-239.

8. Лейбенгруб П.С. Дидактические требования к уроку истории в средней школе. – Москва: «Просвещение», 1980.

9. Вагин А.А. Методика преподавания истории в средней школе. – Москва: «Просвещение», 1968.

РЕЗЮМЕ Мақолада тарих дарсларида жадваллар, схемалар ва диаграммалардан фойдаланиш орқали ўқувчиларнинг мантикий фикрлашини ривожлантиришнинг методик асослари ёритилган. Визуализациянинг дидактик аҳамияти очиқ берилиб, у ўқувчиларнинг таҳлилий ва умумлаштириш кўникмаларини шакллантиришга хизмат қилади. Мантикий топшириқлар ва визуал усулларни самарали қўллаш шарт-шароитлари аниқланиб, улар ўқув фаоллиги ва мулоҳаза юритиш қобилиятини ривожлантиришга қаратилгани таъкидланади.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются методические основы развития логического мышления учащихся на уроках истории через использование таблиц, схем и диаграмм. Раскрывается дидактическая роль визуализации, способствующей формированию аналитических и обобщающих умений школьников. Определены условия эффективного применения логических заданий и визуальных методов, направленных на развитие познавательной активности и навыков рассуждения.

SUMMARY. The article examines the methodological foundations for developing students' logical thinking in history lessons through the use of tables, charts, and diagrams. It reveals the didactic role of visualization, which contributes to the formation of students' analytical and generalization skills. The conditions for the effective use of logical tasks and visual methods are identified at developing cognitive activity and reasoning skills.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION O'YIN TURLARIDAN FOYDALANIB DARS O'TISHNING AHAMIYATI

G.B.Babasheva – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, innovatsion o'yin, o'quv motivatsiyasi, kreativlik, raqamli texnologiya.

Ключевые слова: начальное образование, инновационные игры, учебная мотивация, креативность, цифровые технологии.

Key words: primary education, innovative games, learning motivation, creativity, digital technology.

Bugungi turli texnologiyalar va axborotlar oqimi mislsiz darajada ko'p bo'lgan davrda ta'lim tizimida an'anaviy darslar o'rniga noan'anaviy muqobil ta'limni, ya'ni innovatsion, yangi texnologiyalarni, interfaol ta'limni joriy etishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Ta'lim jarayonini tashkil etishda, bola shaxsiy qobiliyati, qiziqishi, moyilligi, uning o'z kuchi imkoniyatlariga ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishini asos qilib olish maqsadga muvofiqdir.

Hozirda ta'lim tizimi jamiyat oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda – bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich ta'lim jarayonida ham yangicha yondashuvlarni, xususan, innovatsion metodlardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Shulardan biri – o'yin texnologiyalaridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin – bu faqat hordiq emas, balki bilimni egallash, ijtimoiylashuv, tafakkurni rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirish vositasidir. Shu jihatdan, darslarda innovatsion o'yinlardan foydalanish nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki o'quvchilar motivatsiyasini ham kuchaytiradi.

Pedagog N.G.Borytko (2019) o'zining tadqiqotlarida o'yinli metodlardan foydalangan holda tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning bilimni egallash darajasi 15-20% yuqori bo'lishini isbotlagan. Xalqaro tadqiqotlar ham shuni ko'rsatadiki, kreativ va o'yin elementlari mavjud darslarda:

- o'quvchining xotirasi yaxshilanadi;
- ijodkorlik rivojlanadi;
- til ko'nikmalari boyiydi;
- mustaqil fikrlash shakllanadi.

Psixolog X.Gardnerning “Ko'p intellekt nazariyasi”ga ko'ra har bir bola o'z intellekt turi bo'yicha o'ziga xos

tarzda bilim oladi – kimdir eshitib, kimdir ko'rib, kimdir harakat orqali. O'yin – aynan shu farqlarga moslashgan eng mos pedagogik vosita hisoblanadi.

Innovatsion o'yinlarning boshlang'ich ta'limdagi o'zni haqida pedagogik tajriba va zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin elementlarini dars jarayoniga kiritish o'quvchilarning diqqatini jamlash, mavzuni ongli ravishda tushunish va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, V.G.Bojovich va L.A.Vengening psixologik tadqiqotlari shuni isbotlagan: bola o'yin orqali bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan yuqori motivatsiyani namoyon qiladi va ko'proq ijobiy hissiyotlar bilan bilimga ega bo'ladi.

Innovatsion o'yin turlari deganda, raqamli texnologiyalar yordamida yaratilgan interaktiv o'yinlar, rol o'ynash usullari, gamifikatsiya asosidagi topshiriqlar va kvestlar tushuniladi. Ular orqali o'quvchilarda faollik, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalar shakllanadi.

Boshlang'ich ta'limda biz o'rgatayotgan mavzular – bu o'quvchilarning asosiy bilim zaminini tashkil etadi. Agar bu jarayon qiziqarli, faol, interaktiv bo'lsa – bilim ham bardavom bo'ladi. Aynan shunday natijaga olib keladigan metodlardan biri bu – innovatsion o'yinlar.

Innovatsion o'yinlar deganda biz quyidagilarni tushunamiz:

- Didaktik o'yinlar: masalan, “So'z top”, “Raqam izla”, “Kim chaqqon?” kabi oddiy o'yinlar.
- Rol o'ynash o'yinlari: “Doktor va bemor”, “Do'konchi va xaridor”, “Maktab, maktab”, “Uy-uy” kabi hayotiy holatlar asosida tuzilgan ssenariylar.
- Raqamli o'yinlar: planshet yoki interaktiv doska orqali ishlanadigan testlar, quizzlar, mini o'yinlar.

- Gamifikatsiyalashgan topshiriqlar: o'yin elementlarini (ball yig'ish, darajalar, rag'bat kartochkalari) o'qituvchilarning topshiriqlariga qo'shib berish.

Bu o'yinlar orqali bola bilimni faqat eslab qolmaydi, balki uni his qiladi, qo'laydi, anglaydi. Ayni shu paytda bilimning haqiqiy ichki egallanishi yuz beradi.

Interfaol metodlar – shunday metodlarki, u o'quvchilarning o'zaro muloqot va o'zaro tasiridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usuldir. "Interaktiv" so'zi ingliz tilidan olingan "Interakt", yani "Inter" – o'zaro, "akt" – harakat, tasir, faollik ma'nolarini beradi. Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi.

Interfaol metodining asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarni mustaqil, ijodiy tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

2. Muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish;

3. O'z-o'zini fikrlashga majbur etish;

4. Faollashtirish;

5. O'quvchilarni tashkilotchilik va yo'naltiruvchanlikka undash;

6. Do'stona munosabatlarni shakllantirish.

7. Refleksiya

Interfaol metodlarni tanlashda quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim:

- dars mazmuniga mos kelishi;

- o'quvchilarning imkoniyatlariga to'liq mos kelishi;

- ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga yo'nalganligi;

- o'quv jarayonini tashkil etish shakllariga mos kelishi;

Noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishdan maqsad: Mustaqil fikrlashni o'rgatadi; ko'p tarmoqli; sodda va osson; bilim boyligini oshiradi; vaqtdan yutadi; qiziqarli o'tadi; dars samaradorligini oshiradi; dunyo-qarashni kengaytiradi; tafakkurni rivojlantiradi; xotirani kuchaytiradi;

izlanishga chorlaydi; har bir o'quvchi bilan individual munosabatda bo'ladi;

o'quvchilar diqqatini darsga qaratadi va hokazo.

Interfaol metod va usullar:

Juftlikda ishlash; Karusel; Kichik guruhlarda ishlash; Akvarium; Tugallanmagan gaplar; Aqliy hujum; Broun harakati; Daraxt yechimi; O'z nomimdan so'zlayman; Rolli o'yinlar; Press metod; O'z pozitsiyasini egallash; Munozara; Debatlar; Katta davra; "BBB" metodi; Klaster; Blist o'yin; Zinama-zina; Baliq skleti v.b.

O'yinli darsning psixopedagogik foydasi bu o'yinli darslar psixologik jihatdan qulay muhit yaratadi. Bu muhitda bolaning qo'rquvi kamayadi, savol berish yoki noto'g'ri javob berishdan uyalmaslik holati paydo bo'ladi. Shuningdek, o'yinli metodlar orqali har bir o'quvchi o'z ijtimoiy roli va pozitsiyasini shakllantiradi. O'yinning qiymati o'yin-kulgi va dam olish imkoniyatlarini o'rganish

va baholashning iloji yo'q. So'nggi o'n besh yil ichida bizning psixologiya va pedagogikamizda bolalar o'yini muammolari bo'yicha individual tadqiqotlar idan ma'lum bo'lishicha o'yinda bolalarning ijtimoiy munosabatlari, intellektual rivojlanish o'yinining ta'sirining ayrim masalalari bilan bog'liq.

Shuningdek, bolalarning ijodiy fikrlashi ham o'yinli faoliyat orqali tezroq rivojlanadi. Masalan, "fikr charxi" yoki "ijodiy kvest" kabi o'yinlarda bola turli alternativ yechimlarni izlashga undaladi. Bu esa uni mustaqil qaror qabul qilishga va o'z tanlovlariga javobgarlik his qilishga o'rgatadi.

Innovatsion o'yinlardan darsda foydalanish tajribalari turli pedagogik amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin asosidagi darslar nafaqat o'quvchilarning bilimni oshiradi, balki darsning umumiy iqlimini ham ijobiy tomonga o'zgartiradi. Masalan, "Quizizz", "Kahoot", "Wordwall", "LearningApps" kabi platformalar o'quvchilarni faol jalb etish, real vaqt rejimida baholash va raqobat ruhi orqali motivatsiyani oshirishda foydalidir.

Tajriba asosida shuni aytish mumkinki, Nukus shahridagi 25-maktabda olib borilgan amaliy tajribada 2-sinf o'quvchilari bilan "Gamifikatsiya asosida ona tili darsini o'tkazish" yo'lga qo'yildi. Darslar "Kahoot" platformasida o'tkazilib, sinfdagi 90% o'quvchi barcha bosqichda faol qatnashgan, bilim ko'rsatkichlari 12% ga oshgan.

O'qituvchi roli va tayyorgarlik darajasi haqida aytadigan bo'lsak innovatsion o'yin texnologiyalarini samarali joriy etish uchun o'qituvchi nafaqat o'yinlarni tanlashi, balki ularni dars mavzusiga integratsiyalash, moslashtirish, baholash mezonlarini to'g'ri aniqlashi zarur. Bu esa o'qituvchidan didaktik hamda texnik kompetensiyalarni talab qiladi. Shu sababli, o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarida innovatsion o'yin metodlari bo'yicha maxsus modullarni joriy qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, innovatsion o'yin turlaridan foydalanib dars o'tish – bu nafaqat zamonaviy metod, balki bugungi boshlang'ich ta'lim uchun zaruratsidir. Bunday yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, bilimga qiziqishini, ijtimoiy moslashuvini rivojlantiradi. Har bir o'qituvchi yaxshi biladiki, darsga qiziqqan bola – bu erkin o'rganadigan, bilimga chanqoq bola. Innovatsion o'yinlar esa aynan shu qiziqishni uyg'otadi. Bu o'yinlar orqali:

- bilim mustahkamlanadi;
- bola o'z fikrini erkin ifodalaydi;
- darslar hayotiy va esda qolarli bo'ladi;
- shaxsiy rivojlanishga turtki bo'ladi.

Shunday ekan, har bir darsga kichik bir o'yin kiritish – bu nafaqat ta'limni qiziqarli qilish, balki har bir bolaning imkoniyatlarini yuzaga chiqarish yo'lida tashlangan muhim qadamlardan biridir. Darslarni interaktiv, qiziqarli va natijador qilishni istagan har bir pedagog ushbu uslubni amaliyotga tatbiq etishi lozim.

Adabiyotlar

1. Vygotskiy L.S. Psixologiya va ta'lim. – Moskva: «Pedagogika», 2005.
2. Shavel I.L. Didaktik o'yinlar orqali ta'lim samaradorligini oshirish. – Toshkent: 2018.
3. Ergasheva X.M. Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlar. – Toshkent: «Fan», 2020.
4. www.quizizz.com, www.kahoot.com – Ta'limiy o'yinlar platformalari.
5. Jalolova D.A. Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari. // "Ta'limda innovatsiyalar". 2023.

6. Бабашева Г.Б. Kichik maktab yoshidagi bolalarda o‘yin foliyatining ahamiyat . «Қарақалпақстанда педагогика илимин раўажландырыўдың актуаль мәселелери: бугин хэм келешек» атамасындағы Республикалық илимий-теориялық конференция Материаллары, 2022, 25-март 272-275-б.

7. Бабашева Г.Б. Сабақта дидактикалық ойынлар хэм оқыўшылардың еркин пикирлеўин раўажландырыў. // Өзбекстан Республикасы Илимлер академиясы Қарақалпақстан бөлиминиң Хабаршысы. –Нөкис: 2002, №1-2. 146-б.

REZYUME. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan dars o‘tayotganda innovatsion o‘yinlardan foydalanishning afzalliklari yoritiladi. Bolaning yosh xususiyatlari, o‘yin orqali o‘rganishga bo‘lgan tabiiy moyilligi, darslarda didaktik va raqamli o‘yinlarni qo‘llashning amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Ilmiy manbalar va zamonaviy tajriba asosida o‘yinli metodlarning o‘quv motivatsiyasi va tafakkur rivojidagi o‘rni ko‘rsatiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье раскрываются преимущества использования инновационных игр при проведении уроков с учащимися начальных классов. Анализируются возрастные особенности детей, их естественная склонность к обучению через игру, а также практические аспекты применения дидактических и цифровых игр на уроках. На основе научных источников и современного опыта показана роль игровых методов в формировании учебной мотивации и развитии мышления.

SUMMARY. This article explores the advantages of using innovative games in lessons with primary school students. It analyzes children's age-specific characteristics, their natural inclination to learn through play, and the practical application of didactic and digital games in the classroom. Based on scientific sources and modern practice, the role of game-based methods in fostering learning motivation and developing thinking skills is demonstrated.

BOLAJAQ TEXNOLOGIYALÍQ TÁLIM OQÍTÍWSHÍLARÍNA KIYIMDI KONSTRUKCIYALAWDÍ ÚYRETIW USÍLLARÍ

A.D.Berdimbetova – docent

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti

Tayanch so‘zlar: dizayn, muhandislik, qo‘g‘irchoq usuli, o‘lchamlarni hisoblash usuli, proportsional hisoblash usuli, tayanch panjara, grafika, kiyim modellari.

Ключевые слова: конструирование, проектирование, метод муляжа, метод расчета-размеров, метод пропорционального расчета, базисная сетка, графика, модели одежды.

Key words: construction, design, mullage method, calculation-size method, proportional calcution method, base grid, graphics, clothing models.

Kirisiw. Keyingi jılları ónim islep shıǵarıw muǵdarın arttırıw, tigilgen zatlardı, sonday-aq kiyim-kenshekler assortimentiniń strukturasını ele de rawajlandırıw sapasın jaqsılaw, tigiwshilik tarawların rawajlandırıw esabınan islep shıǵarıw ónimin arttırıw wazıypaları alǵa qoyıldı.

Bul wazıypalardı nátiyjeli iske asırıw ushın jeńil sanaatnı tigiwshilik tarawına tiyisli kárxanaların texnika jaǵınan qayta qurallandıırıw hám qayta qurıw, jańa kompleksli mexanizaciyalastırılǵan processlerdi, jańa texnika hám aldınǵı texnologıyanı iske asırıw, jańa materiallar, sonıń menen birge texnologıyalıq processlerdi avtomatlastırıw ushın kiyim detallarınıń konturların, baza konstrukciyaların tártipke salıw islerin tuwrı jolǵa qoyıw talap etiledi.

Tayar kiyim joqarı sapalı hám onı tigiw (islep shıǵarıw) ekonomikalıq jaqtan nátiyjeli bolıw ushın kiyimdi joybarlaw waqtında-aq buǵan dıqqat awdarıladı. Tigiwshilik sanaatınıń xızmetleri áne usı waqıttan baslap joybarlaw dáwirinde islep shıǵılatuǵın zattıń sapasın jaqsılaw imkaniyatların izleydi hám onı tabıwǵa háreket etedi.

Kiyimdi konstrukciyalaw onı joybarlawdıń eń áhmiyetli bólimi hám júdá quramalı dóretiwshilik jumıs bolıp, ulıwma konstruktorlıq hám texnikalıq wazıypalardıń sheshimin óz ishine aladı.

Kiyimdi konstrukciyalaw degende, ádette, kiyimdi islep shıǵaratuǵın detallar menen materiallar kompleksi, sonday-aq olardı óz ara biriktirip tigip, belgili ólshemdegi hám formadaǵı pútin bir buyım halına keltiriw usılları, onı islew quralları túsiniledi [1].

Hár túrli hám modeli kiyimniń konstrukciyası tigiw texnologıyasınıń sheberligine, sonday-aq modaǵa qarap ózgerip turadı [2]. Bul jaǵday jańa modeldegi kiyim kon-

strukciyasın islep shıǵarıwdı anaǵurlım quramalılastıradı. Jumıstı jeńillestiriw ushın tipovoy hám baza konstrukciyalardan keń paydalanıladı.

Tiykargı bólim. Turmıs xızmeti sistemasında kiyim joybarlawdıń ózine tán qásiyetleri bar. Kiyim joybarlaw isiniń tiykarın model dúziw hám konstrukciyalıq hújjetlerdi islep shıǵarıw quraydı. Turmıs xızmeti sistemasında kiyim joybarlaw procesi úsh basqısıhtı óz ishine aladı.

Birinshi basqısıhta – modellestiriwshi shólkem, respublika kiyim modellari úyleri hár jılı kiyimler modellerin baǵdarlawshı (jetekshi) kollekciasın hám de kiyim joybarlawǵa tiyisli áhmiyetli metodikalıq maǵlıwmatlardı tayarlaydı, moda baǵdarı boyınsha, modaǵa tuwrı keliwshi forma hám pishimdegi kiyimlerde joybarlaw hám de tigiwdiń ózine tán tárepleri haqqında, jańa materiallardan paydalanıw haqqında metodikalıq usınıslar islep shıǵıladı.

Ekinshi basqısıhta – kárxananiń tájiriye xızmeti aǵzalrı modellestiriwshi bas shólkemnen alınǵan materiallarǵa tiykarlanıp kiyimlerdeń modaǵa sáykes modellari kollekciasın dúzedi.

Úshinshi basqısıhta – islep shıǵarıw uchastkalrı (ateleler) shárayatında belgili bir dene ushın úlgi tayarlanadı, bunda súwretshiniń jumıs papkasındaǵı modellerden hám de eksperimental xızmet qanıgelerinen alınǵan konstruktorlıq hújjetlerden paydalanıladı [3].

Konstruktor xızmetiniń eń qıyın hám juwapkerli basqısıhtı kiyim detallarınıń sızılma-jayılmasın sızıwdan ibarat. Bul basqısıhtan gózlenen tiykargı maqset detallardıń forma hám ólshemlerin ilajı barınsha anıq belgilew, solay etkende kiyim detallarınıń jiynalǵannan keyin payda bolǵan forması súwretshi formasına tuwrı keledi.